

AHOLINING IJTIMOYIY-IQTISODIY TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI

Raximov Anvar Norimovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti PhD.

ORCID: 0009-0009-2855-4084

E-mail: sanjar.8548@mail.ru

Annayev Abbas Baxtiyor o'g'li

Xalqaro innovatsion universiteti katta o'qituvchisi
Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: abbos.annayev.91@mail.ru

ORCID:0009-0002-9847-2163

Annotatsiya

Maqolada kichik biznes faoliyatini rivojlantirish asosida aholi turmush sifatini yaxshilash, ijtimoiy muhitini, mintaqada aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ahamiyatining shart-sharoitlari, tamoyillari, xorij tajribasi va undan samarali foydalanish yo'llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, aholi, aholining turmush darajasi, xususiy tadbirkorlik, ishsizlikni kamaytirish.

Аннотация

В статье описаны условия, принципы, зарубежный опыт и пути эффективного использования значения малого бизнеса и частного предпринимательства в повышении качества жизни населения, социальной среды, качества жизни населения региона на основе развития малого предпринимательства.

Ключевые слова: Малый бизнес, население, уровень жизни населения, частное предпринимательство, снижение безработицы.

Annotatsiya

The article describes the conditions, principles, foreign experience and ways to effectively use it to improve the quality of life of the population, the social environment, and the importance of small business and private entrepreneurship in the region, based on the development of small business activities.

Keywords: Small business, population, standard of living of the population, private entrepreneurship, unemployment reduction.

KIRISH

Xususiy tadbirkorlik iqtisodiy tizimning muhim qismlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki aholi turmush darajasining oshishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ish o'rinlari yaratish, investitsiyalarni jalb etish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish mumkin. Shunga ko'ra aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi daromadi tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha D.Rikardo, R.Solou, A.Sen, A.Ditont kabi ko'plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti Lauretlari nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ularda yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini nazariy isbotlashgan[2].

MDH mamlakatlaridan N.I.Baranets, I.V.Barbashin, O.I.Vitkovskaya, D.A.Volkov, T.A.Gurko, S.O.Kalendjyanlarning[hamda O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar qatorida Q.X.Abdurahmonov, Sh.R.Xolmo'minov[3], R.F.Djumanova, N.M.Ibragimova[6], M.Z.Muxitdinova, B.Pardayeva, K.S.Saidov, P.Z.Xashimov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kambag'allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqur o'rganishga harakat qilingan[7].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi yondashuvlar va usullar tanlandi:

Tizimli tahlil: Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ta'sirini aniqlashda tizimli yondashuv asosida tahlillar olib borildi.

SWOT tahlil: Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlar va xavf-xatarlar o'rganildi..

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda oilaviy firmalar jamiyat farovonligi va rivojlanishining asosini tashkil qiladi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishni xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish, ishlab chiqariladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning kattagina qismi ularning zimmasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga kichik oilaviy biznesni rivojlantirish mamlakat uchun nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Hattoki eng kichik bo'lsada, o'z biznesiga ega bo'lgan oilada intilgani maqsad, farzandlarini o'stirgani sabab, meros qilib qoldirgani narsa mavjud bo'ladi. Shunday qilib mamlakatda asta-sekinlik bilan o'zi uchun ishlay oluvchi va shu bilan bir vaqtda davlatga ham salmoqli daromad keltiruvchi mulkdorlarning o'rta sinfi shakllanadi.

Xususan, aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishni xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator shart-sharoitlar mavjud bo'lishi, ularning har biri iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Biznes muhiti va davlat siyosati-xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda eng muhim omillardan biri bu davlatning biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan siyosati hisoblanadi. Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan soliq va iqtisodiy islohotlar, qonunlarning soddalashtirilishi, byurokratik to'siqlarning kamaytirilishi tadbirkorlarning faoliyatini yanada samarali qilishga yordam beradi. Ayniqsa, kichik

va oʻrta biznesga soliq imtiyozlarini taqdim etish, ularning rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi.

Moliyaviy qoʻllab-quvvatlash xususiy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun moliyaviy qoʻllab-quvvatlash muhim shart-sharoitdir. Banklar va moliyaviy institutlar tomonidan kichik va oʻrta biznes uchun arzon foizli kreditlar, biznesni boshlash uchun grantlar va investitsiya dasturlari xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Moliyaviy qoʻllab-quvvatlash orqali tadbirkorlar oʻz biznesini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladi.

Taʼlim va malaka oshirish-tadbirkorlikni rivojlantirishda taʼlim va malaka oshirishning oʻrni katta. Tadbirkorlar va ularning xodimlarini biznes boshqaruvi, moliya, marketing va boshqa sohalarda malakasini oshirish uchun taʼlim tizimini takomillashtirish zarur. Bu, oʻz navbatida, tadbirkorlarning yanada samarali ishlashiga, raqobatbardoshligini oshirishga, kambagʻallikni kamaytirishga yordam beradi.

Innovatsiyalarni joriy etish-innovatsion texnologiyalarni tadbirkorlik jarayonlariga kiritish orqali biznesni samarali boshqarish mumkin. Raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, elektron tijorat tadbirkorlikning rivojlanishiga yordam beradi. Yangi texnologiyalarni qoʻllash nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki yangi bozorlar yaratadi, shu bilan birga, iqtisodiy oʻsishga xizmat qiladi.

Huquqiy himoya va xavfsizlik-xususiy tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish va ularga xavfsiz muhit yaratish ham xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Hukumatning biznesni qoʻllab-quvvatlash uchun mustahkam huquqiy bazaga ega boʻlishi, shuningdek, biznesni himoya qiluvchi qonunlarni ishlab chiqishi talab etiladi. Xususiy tadbirkorlar uchun huquqiy himoya muhim, chunki bu ularga oʻz biznesini xavfsiz va barqaror muhitda rivojlantirish imkonini beradi.

Yangi ish oʻrinlarini yaratish-xususiy tadbirkorlik yangi ish oʻrinlarini yaratish orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishni muhim ahamiyatga ega. Xususiy sektor oʻzining faoliyatini kengaytirgan sari, yangi ish oʻrinlari yaratadi va shu orqali ishsizlikni kamaytiradi. Ayniqsa, qishloq joylari va kambagʻal hududlarda ish oʻrinlari yaratish, iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda muhim omil hisoblanadi.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishni xususiy tadbirkorlik sohasida band tadbirkorlik subyektlari koʻpincha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etishga urinishlari bilan tavsiflanadi. Ular faoliyatining strategiyasi asosan quyidagilardan tashkil topadi:

Aholi real daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, buning uchun ijtimoiy mehnat taqsimotini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish orqali jon boshiga toʻgʻri keladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini, yaʼni mehnat unumdorligini keskin oshirish lozim.

Kambagʻal holatida yoki chegarasida yashayotgan aholi qatlamini qashshoqlikdan chiqarish uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar va aholi tomorqalaridan maqsadli foydalanishda mikroklaster tuzilmalarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, oilaviy va kichik biznes subyektlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikning ham muhim poydevorini tashkil etadi. Ayniqsa, aholining turmush darajasini oshirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Xususiy sektorga tayanadigan iqtisodiyotda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining katta qismi ushbu subyektlar zimmasiga to'g'ri keladi. Natijada mulkdorlarning o'rta sinfi shakllanib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveriga aylanadi.

1-jadval

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirish masalasiga oid SWOT tahlil¹

| Kuchli jihatlar (S) | Zaif tomonlar (W) |
|--|--|
| Aholining ish bilan bandligini ta'minlaydi | Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati cheklangan |
| O'zini o'zi band qilgan fuqarolar soni ortadi | Biznes yuritish madaniyati va malakaning pastligi |
| Mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkoniyati | Huquqiy himoya tizimining ba'zi hollarda zaifligi |
| Bozor mexanizmlari asosida iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi | Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda infrastrukturaviy to'siqlar |
| Oilaviy va mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi | Soliq va tekshiruv tizimining ayrim hollarda murakkabligi |
| Raqobat muhitining shakllanishi orqali narx va sifat yaxshilanadi | Davlat xizmatlari va ruxsatnomalarning byurokratik kechikishi |
| Imkoniyatlar (O) | Tahdidlar (T) |
| Yangi bozorlar va mahsulot turlari yaratiladi | Iqtisodiy beqarorlik sharoitida biznesni davom ettirishda qiyinchiliklar |
| Investitsiyalar va xorijiy kapitalni jalb qilish imkoniyati | Global pandemiyalar yoki tashqi iqtisodiy inqirozlar |
| Tadbirkorlar va xodimlar malakasini oshirish dasturlarining kengaytirilishi | Noaniq va o'zgaruvchan qonunchilik muhitining salbiy ta'siri |
| Raqamli texnologiyalar va elektron tijoratning rivojlanishi | Raqobatning keskinlashuvi natijasida kichik biznesning zaiflashuvi |
| Qishloq joylarda mikroklasterlar orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash | Korrupsiya va norasmiy to'lovlar biznesga to'sqinlik qilishi mumkin |
| Hukumat tomonidan strategik dasturlar va soliq imtiyozlarining taqdim etilishi | Kreditlar bo'yicha garov va kafolat tizimlarining qiyinligi |

Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlovchi soliq imtiyozlari, yengillashtirilgan litsenziyalash tartibotlari, qonunchilikdagi soddalashtirishlar va byurokratik to'siqlarning bartaraf etilishi tadbirkorlik muhitini ancha yaxshilaydi.

Past foizli kreditlar, startaplar uchun grantlar, investitsiya dasturlari va kafolat jamg'armalari xususiy tadbirkorlik uchun zarur moliyaviy asosni yaratadi. Bu vositalar orqali tadbirkorlar o'z bizneslarini kengaytirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

¹ Muallif ishlanmasi

Tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, menejment, marketing va moliyaviy savodxonlik bo'yicha treninglar va malaka oshirish dasturlari orqali xususiy sektor vakillarining kompetensiyasi oshiriladi. Natijada biznes faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligi kuchayadi.

Raqamli texnologiyalar, elektron tijorat, avtomatlashtirish vositalari yordamida kichik va o'rta bizneslar o'z faoliyatini modernizatsiya qilishi mumkin. Bu esa, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish bilan birga yangi bozor segmentlarini egallash imkonini beradi.

Xususiy tadbirkorlarning mulk huquqi, shartnoma majburiyatlari va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi barqaror huquqiy baza mavjud bo'lishi zarur. Bu investorlar ishonchini oshiradi va biznes muhiti barqarorligiga xizmat qiladi.

Xususiy sektorning kengayishi orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, ayniqsa qishloq joylarda aholining bandligi ta'minlanadi. Bu ishsizlikning oldini olishda va kambag'allikni kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xususiy tadbirkorlik, ayniqsa yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etishga yo'naltirilgan hollarda, aholining real daromadlarini oshirish, iste'mol salohiyatini kuchaytirish va jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish orqali mehnat unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy zaif qatlamlarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish maqsadida mikroklasterlar asosida infratuzilma yaratish, tomorqalardan foydalanishni samarali tashkil etish, imtiyozli kredit siyosatini amalga oshirish aholi turmush darajasini oshirishning asosiy vositalaridandir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki aholi turmush darajasining oshishini ham ta'minlaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq va huquqiy islohotlarni amalga oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda moliyaviy resurslarni taqdim etish orqali turmush darajasini yaxshilash mumkin. Shuningdek, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy farovonlikni oshiradi. Shuningdek, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy farovonlikni oshiradi. Aholining ish bilan bandligi aholi turmush sifatini yaxshilanilishiga xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida mavjud ushbu muammolarni samarali hal etish uchun respublika hukumatining bu sohani qo'llab — quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bunday konsepsiyaning asosida nomutanosibliklarni bartaraf etishga, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samaraliroq foydalanishga imkon beruvchi tuzilmaviy o'zgarishlar maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // 30.12.2020 10:00.10.3K. <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistanashavkata-mirziyoyeva-oliy->

majlisi

2. Deaton A. (2013) *The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality*, Princeton, N.J.: Princeton University Press 27

3. Q.X.Abdurahmonov, SH.R.Xolmo‘minov “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”. — O‘quv qo‘llanma -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004 y.

4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma’lumotnomasi

5. Ibragimova N.M. “Aholi iste’molini makroiqtisodiy takomillashtirish” iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent –2019 y.

6. Mustafokulov Sh.I. “Kambag‘allik ayb emas, biroq ...”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25mart.

7. Raximov, A. N. (2023). Dehqon xo‘jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar. *Экономика и социум*, (3-2 (106)), 255-262.

8. Jo‘rayev, F. (2021). Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqboldagi muammolari va ularni ekonometrik modellashtirish. *Iqtisodiyot va ta’lim*, (4), 377-385.

9. Maxmatqulov, G. O. X. (2023). “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘qitishda virtual cisco packet tracer dasturidan foydalanish. *Educational research in universal sciences*, 2(15), 483-486.

10. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 24(6), 245-250.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**